



**Iroda AZIMOVA,**  
*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, f.f.n*  
Email: [azimova\\_iroda@navoiy-uni.uz](mailto:azimova_iroda@navoiy-uni.uz)

*O'zMU dotsenti, f.f.d. M.Abdurahmonova taqrizi asosida*

### BRIEF HISTORY OF RESEARCH ON APHASIA

#### Annotation

This article briefly reviews the research conducted in the history of aphasia from ancient times to the Middle Ages. We based on the articles by modern aphasiologists on this topic. Different approaches to the history of aphasia is outlined. We discussed main figures and research during the given period of time, as well as we give some review on Avicenna's approach to the speech pathology based on his work "Canon of Maedice".

**Keywords:** history of aphasiology, aphasia, speech pathology, Avicenna, Galen.

### КРАТКАЯ ИСТОРИЯ ИССЛЕДОВНИЙ ПО АФАЗИИ

#### Аннотация

В данной статье кратко рассматривается история афазии с древнейших времён до Средневековья. В качестве основы взяты статьи современных афизиологов по этой теме. Излагаются различные подходы к истории афазии. Обсуждаются основные деятели и исследования, проводившиеся в этот период, а также даётся обзор подхода Авиценны к патологии речи, основанный на его «Каноне врачебной медицины».

**Ключевые слова:** история афизиологии, афазия, патология речи, Авиценна, Гален.

### AFAZIYAGA OID DASTLABKI TADQIQOTLARNING QISQACHA TARIXI

#### Аннотация

Mazkur maqolada afaziyaning o'rganilish tarixidagi qadimgi davrdan to'rtta asrgacha amalga oshirilgan tadqiqotlar qisqacha yoritiladi. Mavzuni yoritishda zamonaviy olimlarning bu borada qilgan ishlariga murojaat qilingan. Mazkur ishlar asosida afaziologiyaning davrlashtirilishi masalasi, unda muhim o'rin tutgan yevropa olimlarining ishlari haqida so'z boradi. Shuningdek, Abu Ali ibn Sinoning nutq buzilishlari bo'yicha mulohazalariga e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** afaziologiya tarixi, afaziya, nutq patologiyasi, Ibn Sino, Galen.

**Kirish.** Afaziya nutq patologiyasi sifatida tilshunoslar e'tiborini tortganiga ancha bo'lgan. G'arbda bu mavzuga bag'ishlangan minglab kitoblar, o'nlab ilmiy davriy nashrlar bor. O'zbek tilidagi afazik nutq tibbiyotida ham, tilshunoslikda ham maxsus tadqiq qilinmagan. G'arbda afaziya bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar til nazariyasini to'ldirib, boyitib borayotganligi afaziyaning tilshunoslar tomonidan o'rganilishi tilshunoslikning rivojlanishida samarali yondashuvlardan biri ekanligini dalillaydi.

Afaziya – inson ulg'ayib, tilni o'zlashtirib, o'z ehtiyojlari uchun bemalol qo'llay oladigan bo'lganidan so'ng miyaning til qobiliyatiga javobgar qismidagi shikast sababli yuzaga kelgan, ya'ni tug'ma bo'lmay, orttirilgan lisoniy nuqson hisoblanadi [5]. Miyaning bunday jarohati, insult, o'sma, mexanik jarohat, viruslar tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu maqolada afaziyaning o'rganilish tarixini qisqacha bayon qilishni niyat qilganmiz. So'zni bu tarixning davrlashtirilishidan boshlaymiz. Aytish joizki, afaziya bo'yicha mavjud tarixiy manbalar Yevropa afaziologiyasida batafsil o'rganilgan. Uning davrlashtirilishi bo'yicha deyarli barcha mualliflar yakdillar. Biz faqat davrlashtirishga turli nuqtayi nazardan yondashuv qo'llagan tadqiqotlarga murojaat qilamiz.

Afaziologiyaning tarixini batafsil yoritgan manba, bizning nazdimizda, J.Tesak va K.Kodga tegishli bo'lib, ular

afaziologiya tarixini xronologik jihatdan quyidagi davrlarga bo'lib yoritadilar: 1) antik davr va o'rta asrlarda afaziya; 2) uyg'onish davridan o'n sakkizinchi asrgacha; 3) o'n to'qqizinchi asrdan 1880-yilgacha: fanning tug'ilishi; 4) Vernike va o'n to'qqizinchi asrning oxiri; 5) XX asr boshidan Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davr; 6) Ikkinchi jahon urushidan Geschindgacha bo'lgan davr: neoklassika va lokalizatsiya g'oyasiga qaytish [6, 1-173]. Ushbu mualliflar afaziologiyaning tarixan rivojlanishi va bu tarix davomida muhim rol o'ynagan tadqiqotchi, ilmiy yondashuv va hodisalarga urg'u beradilar. Xususan, Ikkinchi jahon urushining afaziyaning o'rganilishiga jiddiy ta'siri bor, aynan shu tarixiy voqea sabab bosh miyasidan yaralangan bemorlar ko'paygan va bu afaziyaning atrofligacha tadqiq qilish imkoniyatini bergan.

P.Eling va H.Vitaker afaziologiyaning tarixini afaziyaga yondashuvning konseptual o'zgarib borishi nuqtayi nazaridan quyidagi davrlarga ajratadi: 1) alohida holatlar tavsifi; 2) nutq buzilishini izohlashga urinishlar; 3) nutq hosil qilinishining miyaning ma'lum sohasi bilan bog'lash; 4) nutqni tushunishni miyaning ma'lum sohasi bilan bog'lash; 5) diagrammalar; 6) grammatik buzilishlar; 7) miyaning lokalizatsiyasiga qarshi qarashlar; 8) klinik yondashuv; 9) afaziyaning neyrolingvistikagacha [2]. Mazkur mualliflar afaziyaning dastlab faqat tavsifi manbalarda paydo bo'lishi, keyin uni izohlashga bo'lgan, haqiqatga unchalik yaqin

bo'lmasa-da, fanning keyingi rivojiga xizmat qilgan urinishlar, afaziyani tushuntirish uchun psixolingvistik modellarning ishlab chiqilishi, afaziyada kuzatilgan grammatik elementlarga e'tibor qaratilishi kabi bir-biriga asos bo'lgan ilmiy faraz va tushunchalar taraqqiyotini tahlil qilganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolamizda biz afaziologiya tarixi bo'yicha yozilgan ilmiy maqolalarni obzor qilar ekanmiz, sistematik tahlil va narrativ metodlaridan foydalandik.

Tahlil va natijalar. Biz afaziologiya tarixi yoritilgan manbalarni tahlil qilib, bir-birini to'ldiruvchi xarakterga ega uchta manbani ajratib oldik. Bu J.Tesak va K.Kod muallifligida chop etilgan ilmiy monografiya, R.Prins va R.Bastiansi muallifligidagi ilmiy maqola hamda P.Eling va H.Vitaker muallifligidagi ilmiy maqola. J.Tesak va K.Kod afaziologiyaning shakllanishidagi muhim tadqiqotlar va tadqiqotchilarga to'xtalibgina qolmay, o'sha davrning ilmiy muhiti, ilmiy muhitni yuzaga keltirgan ijtimoiy-siyosiy kontekst haqida ham ma'lumot berishi bilan diqqatga sazovor. R.Prins va R.Bastiansi afaziya o'rganilishining eng qadimgi davri hisoblangan misr jarohlarining qaydlaridan to P.Brokaning kashfiyotigacha bo'lgan davrni tahlil qiladilar. Mazkur maqolada aynan shu davr oralig'idagi manbalardagi matnlardan parcha aynan keltirilib, batafsil tahlil qilingani va bugungi ilm-fan nuqtayi nazaridan mazkur tavsiflarga qanday izoh berish mumkinligi haqidagi fikrlar bayoni bilan e'tiborga molik.

P.Eling va H.Vitakerlarning maqolasi nazariy tushunchalarning rivojlanishiga urg'u bergani bilan ahamiyatlidir.

Yuqoridagi tilga olingan mualliflarning barchasi til va miyaning o'rtasida bog'liqlik borligini ko'rsatgan eng birinchi manba sifatida Edvin Smit papirusi deb nomlangan hujjatni keltiradilar [2, 4, 6]. Unda shifokor tomonidan jismoniy jarohati mavjud 48 ta bemorning holati tavsiflangan, ularning 27 tasida jarohat boshida bo'lgan; 5 kishining holati tavsifida "tilsiz" deb qayd etilgan. J.Tesak va K.Kod bu hujjatda til bilan bog'liq muammoning asosi miya deb hisoblanmagan, chunki u vaqtda inson organizmining markazida yurak turadi deb qaralganini aytadi [6]. R.Prins va R.Bastiansi mazkur hujjatda insonning tili yo'qolishi tashqi ta'sir natijasida, xususan, "xudo yoki o'lim unga o'z ruhini puflagan" deb izohlanganiga e'tibor qaratadi [4].

Eramizdan avvalgi XIV asrning so'nggi choragiga oid deb hisoblanadigan xet mixxat yozuvida yozilgan sopol lavhadagi matn afaziyaga oid holat tavsifi berilgan qadimgi manbalardan biri hisoblanadi. Unda eramizdan avvalgi 600-yildan 1200-yilgacha Mesopotamiyada hukmronlik qilgan Xet imperiyasining qirollaridan biri Mursilis II to'fon paytida qattiq qo'rqib, nutqini yo'qotgani va buni to'fon xudosing qahri kelgani uchun deb tushungani, shu sabab kiyimini, aravasini, otini qurbon qilgani haqida yoziladi [2]. R.Prins va R.Bastiansi ushbu manbadagi matnni tahlil qilar ekan, unda "og'zim qiyshayib ketdi" ifodasiga e'tibor qaratadi va u uxlab yotganida insultni boshidan kechirgan bo'lishi mumkinligini taxmin qiladi. Matn davomida bu holatning vaqtincha bo'lgani anglashilar ekan, olimlar Mursilis tranzitor ishemik xurujni boshidan kechirgan bo'lishi haqiqatga yaqin deb hisoblaydi [4].

Afaziya bo'yicha eng qadimgi manbalar haqida so'z ketganda, aksariyat olimlar Edvin Smit papirusi va xet sopol lavhasidan keyin Gippokrat korpusini tilga oladilar (sharqda "majmuayi Buqrotiya" nomi bilan mashhur bo'lgan [3]). J.Tesak va K.Kod esa Gippokratgacha bo'lgan yunon-rim davridagi olimlarning gipotezalariga e'tibor qaratadi. Aynan shu davr olimlarining qarashlari keyinchalik ilm-fanning rivojlanishiga asos yaratganini, ayniqsa, inson organizmidagi ong va hissiyotning "joylashuvi" xususida yuritilgan fikrlar

ahamiyatga molik ekanini ta'kidlaydilar. Tilni inson ruhiyatining ratsional jihati bilan aloqador deb hisoblash Pifagordan boshlanganini va bu tilni miyaga bog'lab tahlil qilishdagi asosiy qadam bo'lganini aytadilar. Mazkur davr vakillaridan Platon fikrlashni miya bilan bog'lagan bo'lsa-da, uning shogirdi Aristotel miyani faqat tanani sovutishga xizmat qiladi, hamma alqiy funksiyalar yurakda joylashadi deb hisoblagan.

Eramizning birinchi yuz yilligida yashab o'tgan yunon-rim shifokori Galen faslsafiy nuqtayi nazardan Aristotelning izdoshi bo'lgan bo'lsa-da, uning yurakni inson organizmining markazi degan qarashini inkor qilgan. Galenning o'zi miyaning tuzilishi va vazifalariga doir qator tajribaviy tadqiqotlar qilgan. Shunga ko'ra, zamonaviy ilm-fan Galenni aqliy qobiliyatlarni miyaning sohaloriga bog'lab o'rgangan tadqiqotchi sifatida ko'radi [6]. R.Prins va R.Bastiansi ham aynan Galen birinchi marta tilning yurak emas, miya orqali boshqarilishini tajribaviy dalillagan olim sifatida afaziologiya tarixida muhim o'rin tutadi deb hisoblaydi [4]. Abu Ali ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" asarining "Bosh va miya kasalliklari" bobini aynan Galenning bosh va miya haqidagi fikri bilan boshlaydi va asar davomida unga qayta-qayta murojaat qiladi [1]. Bundan Galenning o'sha davr ilmiy muhitida qanchalik obro'ga ega bo'lganini tasavvur qilish qiyin emas. Galen qarashlarining ta'siri o'rta asrlargacha saqlanib qolgan va tilning miya bilan bog'liqligiga ishora qiluvchi manbalarda ustunlik qilgan [2].

Afaziyaning o'rganish tarixida xronologik jihatdan keyingi muhim manba yuqorida aytilganiday, Gippokrat korpusidir. J.Tesak va K.Kod qayd etishicha, Gippokrat korpusida ("Majmuayi Buqrotiya") tavsiflangan qator holatlar aynan til va nutqning buzilishini aks ettiradi, faqat ularning nima sababdan kelib chiqqani noaniq qolgan. Matnda ushbu buzilishlarni ifodalash uchun aphonos va anaudos so'zlari qo'llanar ekan, ular lug'aviy jihatdan "ovozsiz" va "eshitishsiz" degan ma'nolarni anglatadi. Bu atamalarining qo'llanishi ham hodisaning tafsilotlari haqida yetarlicha tasavvur bo'lmaganini ko'rsatadi. Nisbatan aniqroq holat bu bir homilador ayolning insult bo'lib, o'ng qo'li falajlanishi va "nutq qudratini yo'qotishi" deb tavsiflanganidir [6]. R.Bastiansi va R.Prins ham Gippokrat korpusidan ayrim o'rnlarni tahlil qilar ekan, til buzilishining aynan qaysi turi - afaziya yoki disartriya yoki afaziya haqida gap ketgani noaniq ekanligini aytadi. Ushbu manbada til bilan bog'liq muammolar tananing bir tomoni falajligi bilan kechishi va buning miyaga aloqasi borligini ko'rsatadigan vaziyatlar tavsiflangan bo'lsa-da, tilning chap miya yarim shariga aloqasi yoki dominantligi masalasida aniq xulosalar berilmagan [4].

Eramizning birinchi yuzyilligida yunon-rim manbalarda boshdan olingan jarohat til bilan bog'liq muammolarga olib kelgani haqida bir necha qaydlar uchraydi [6]. Biroq ular keyinchalik yozilgan o'rta asr manbalari kabi faqatgina holatlar tavsifidan iborat bo'lgani aytiladi [2].

Shu o'rinda Abu Ali ibn Sinoning nutq buzilishi masalasidagi fikrlariga to'xtalamiz. Yuqorida aytib o'tilganiday, ibn Sino Galenning inson miyasi haqidagi qarashlarini yaxshi o'zlashtirgan va ularga o'z munosabatini "Tib qonunlari" asarida bayon qilgan. Shu asarning alohida paragrafi, garchi juda qisqa bo'lsa ham, "Nutq buzilishlari" deb nomlangan. Unda soqovlik va boshqa nutqiy buzilishlar miyadagi va nerv tolalarining miyadan chiqish joyidagi jarohat sababli yuzaga kelishi mumkinligi aytiladi. Bunday buzilishlar asab tolalarining o'zidagi yoki muskulning o'zidagi jarohat sababli ham ro'y berishi ta'kidlanadi [1]. Shu asarning miya o'smasi - sarsamga bag'ishlangan paragrafida simptomlardan biri sifatida "gapirishga xohish va rag'batning yo'qligi", shuningdek, ovoznining yo'qolishini aytib o'tadi [1]. Shuningdek, mazkur o'sma miyaning o'rta qismida bo'lsa,

tafakkur buzilishi va ko'p bema'ni gaplarni gapirishi kuzatishi; sarsamning bir ko'rinishi sifatida tilga olingan subara kasalida bemorning savolga mos javob bermasligi, ensa qismida og'riq sezishi, tafakkur ham buzilib, kuchsizlikdan kam gapirsa-da, o'sha gap ham ma'nisiz bo'lishi aytiladi [1].

Ibn Sinoning yozganlariga asoslanib aytish mumkinki, tilning miyadan boshqarilishini olim yaxshi anglagan, biroq tilni miyaning alohida bir sohasiga bog'lamagan. Miyadagi jarohat nutqiy buzilishga olib kelishini, shuningdek, miyadagi turli xil kasalliklarda nutqiy qobiliyatning izdan chiqishini tafakkur izdan chiqishining belgisi sifatida yondashgan. Afsuski, afaziologiya tarixi bo'yicha g'arb manbalarida ibn Sino haqida hech narsa aytilmagan. Balki uni Galenning izdoshi sifatida ko'rishgani uchun alohida to'xtalishmagandir, deb taxmin qilamiz. Miyaning vazifalari borasida aynan Galenning qarashi o'rta asrlarga qadar ilm olamida dominant bo'lgan.

O'rta asrlarga kelib afaziya tilga olingan manbalar nisbatan ko'paygan va ularda til bilan bog'liq buzilishning miyadagi jarohat sababli yuz bergani bayon qilingan. Mazkur davr manbalarida Galenning g'oyasi ta'siridan chiqish boshlanganini ko'rish mumkin. Bu davrda yashab o'tgan Giovanni De Vigoning 1514-yilda nashr qilingan ishida miya shikastlanishi oqibatida nutqni yo'qotish holati tasvirlangan. Xuddi shuningdek, Giakomo Berengario, Nikola Massa, Villiam Clowes, Hieronymus Mercurialis, and Johann Schenck von Grafenberg kabi tadqiqotchilar shu kabi holatlarni o'z ishlarida tilga olib o'tgan. Aynan shu ishlarda ong vazifalarini miya bilan aloqasini ochishda shifokorlar o'z ish faoliyati davomidagi kuzatishlariga tayangan [2].

Bu davr E.Prins va R.Bastiansining maqolasida uyg'ornish davri manbalari sifatida ajratiladi va Antonio Guainerio, Nikolas Massa, Johann Schenck von Grafenberg kabi olimlarning ishlariga to'xtalib o'tadi. Mazkur olimlar afaziya holatini tasvirlar ekan, uni miyadagi jarohat bilan bog'lashadi. Garchi tilni miyaning aniq qismi bilan bog'lashda xato va noaniqliklar bo'lsa-da, ular keyinchalik to'g'ri xulosalarga tamal toshini qo'ygan deb qaraladi [4].

XVII asrga kelib afaziya tavsiflangan manbalar ko'payadi va ularda afaziya oid simptomlarning oldingi davr manbalariga qaraganda aniqroq yozilganini ko'rish mumkin. E.Prins va R.Bastiansi bu davrda yashagan J.Shmidt, J.J.Vepfer, P.Rommel, O.Dalin, J.A.P.Gesner kabi olimlarning ishlariga e'tibor qaratadi. Xususan, J.Shmidt tanasining o'ng tomoni falajlangan 65 yoshli bemorda aleksiya (so'zlarni o'qiy olmaslik) holatini qayd etadi, biroq bemorda agrafiya bo'lmagan, ya'ni bemorning so'zlarni yozish qobiliyati saqlangan. Bemor aytilgan so'zlarni imlo xatosiz yoza olgan, lekin hatto o'zi yozgan so'zlarni ham o'qiy olmagan. J.J.Vepfer olmon harbiy jarrohi bo'lib, o'z faoliyati davomida uchragan til

buzilishiga oid o'nlab holatlarni qayd etgan. P.Rommel 52 yoshli ayol bemorning holatini tavsiflarkan, uning "ha", "va" so'zlaridan boshqa biror so'zni ayta olmaganini, biroq "Injil"dan ibodat qilganda aytadigan parchalarni yoddan ravon aytib bera olishini yozadi. Ammi ibodat oyatlaridan birortasini ajratib aytish so'ralganda, ayol buni bajara olmagan. Xuddi shu kabi holatni shved olimi O.Dalin ham keltirgan. Uning bemori muloqot uchun "ha" so'zidan boshqa so'zni ayta olmasa-da, diniy madhiyalarni ayta olgan.

Mazkur davrdagi eng muhim tadqiqot olmon olimi J.Gesnerga tegishli. U o'zining "Nutqiy amneziya" deb nomlangan asarining "Tibbiyotga oid kuzatuvlar to'plami" bobini yozadi, bob 75 betdan iborat bo'lib, unda birinchi marta jargon afaziya, stereotipik gap, jargon agrafiya, lotin va nemis tilida o'qishning farqli izdan chiqishi kabi holatlar tavsiflangan [4].

Tesak va K.Kod J.Gesnerni "Johan Gesner va afaziya oid dastlabki nazariya" paragrafidagi, P.Eling va H.Vitaker "Nutq buzilishini izohlashga urinishlar" bo'limida tilga oladi [6]. Manbalarning barchasida J.Gesnerning K.D. nomli bemorning holati tavsifiga alohida to'xtalindi. K.D.da kuzatilgan nutq buzilishini atroflicha tahlil qilarkan, J.Gesner bu patologiyani aqliy buzilish yoki umumiy xotiraning izdan chiqishi deb bo'lmasligini, balki verbal xotiradagi buzilish deb xulosa qiladi [2]. K.D. gapirayotganda tilda mavjud bo'lmagan "so'z"larni (neologizmlarni) ishlatgan, u jargonda yaxshi gapirgan, shunga ko'ra mazkur holat jargon afaziya deb baholangan. Shuningdek, ushbu bemorda stereotipik jumlar "xayrli tong", "kamtarin qulingiz", "sodiq qulingiz", "Ey, Xudo", "xohlamayman" kabi jumlar ba'zan o'z o'rnida, ba'zan adashtirib qo'llangan. J.Gesner mazkur holatni tahlil qilarkan, afaziya faqat verbal xotiraga xos buzilish bo'lib, uning asosida so'zlarga oid abstrakt tasavvurni ularni ifodalovchi verbal belgilar bilan bog'lay olmaslik yotadi. Bu buzilish, odatda, bemorning gapirmay qo'yishiga olib keladi, biroq bemor gapirishni istaganda yanglish bog'lanishlarni yuzaga keltiradi, deydi [4].

Ko'rib o'tilganiday, o'rta asrlarda tilning miyaga bog'liqligi, tildagi shakl va ma'noning alohida holda izdan chiqishi mumkinligi borasida kuzatishlarga asoslangan tahlil va xulosalar mavjud bo'lgan. Bu o'z navbatida afaziologiyaning keyingi rivojlanishiga poydevor bo'lib xizmat qilgan.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, afaziologiyaning Yevropada o'rganilish tarixi batafsil tahlil qilingan, har bir manba chuqur o'rganib chiqilgan. Biroq sharqda, xususan, bizning yurtimizda afaziya oid bo'lishi mumkin bo'lgan manbalar yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Ushbu ish ham matnshunos-manbashunoslarning, ham neyrolingvistlarning, ham tibbiyot tarixi bilan shug'ullanuvchilarning mas'uliyatidagi vazifadir.

#### ADABIYOTLAR

1. Абу Али ибн Сино. Канон врачебной науки. IV. Ташкент, 1996.
2. Eling P., Whitaker H. History of aphasia: a conceptual analysis; in Finger S, Boller F, Tyler KL (eds): Handbook of Clinical Neurology (Vol 95). Amsterdam, Elsevier, 2009, pp 571–582.
3. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
4. Prins, R., & Bastiaanse, R. (2006). The early history of aphasiology: From the Egyptian surgeons (c. 1700 BC) to Broca (1861). *Aphasiology*, 20(8), 762–791. <https://doi.org/10.1080/02687030500399293>
5. Randolph S. Marshall, Ronald M. Lazar, J.P. Mohr, Aphasia, Medical Update for Psychiatrists, Volume 3, Issue 5, 1998, P. 132-138, ISSN1082-7579, [https://doi.org/10.1016/S1082-7579\(98\)00026-0](https://doi.org/10.1016/S1082-7579(98)00026-0), (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1082757998000260>)
6. Tesak J. & Code C. Milestones in the history of aphasia. Theories and protagonists. 2008.